



**XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI
ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 21 - avgust

VI-64-164-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Tuman mahalliy budgetining 2023-yil II chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga muvofiq tuman budgetining 2023-yil II chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi bilan mahalliy budgetlarning qo‘srimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi, tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budgetining qo‘srimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budgetining 2023-yil II chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 4 148,0 mln.so‘mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag‘lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budgetining qo‘srimcha manbalari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

4. Tuman mahalliy budgetining qo‘srimcha manbalari hisobidan mablag‘ oluvchilarining rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi R.Kabulova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining
2023-yil 21-avgustdagি
VI-64-164-8-109-K/23-son qaroriga
1-ilova

Angor tuman mahalliy budgetining joriy yil davomiga ko‘ra qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag‘lar

T/r	Tashkilotlar nomi	Sohalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming.so‘mda)	Foiz hisobida
	1	2	3	4
	Jami tuman budgetining 2023-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar		4 148 000,0	100%
		Jami summasi	127 400,8	3,1%
I.		Aholini ijtimoiy himoyalashga	100 000,0	2%
1,1	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-aprel kunidagi №213-f sonli farmoyishiga asosan "Mahalla" xayriya jamoat fondi Angor tuman bo‘linmasi "Saxovat va ko‘mak" jamg‘armasiga mablag‘larni shakllantirish uchun	100 000,0	2,4%
II.		Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xarajatlari	27 400,8	1%
2,1	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrdagi PF-32-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan "Sharq guli" mahallasida qurilayotgan «Yangi O‘zbekiston» massivi hududidan bolalar maydonchasi qurish uchun	27 400,8	0,7%